

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

5111200 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta‘lim yo‘nalishi

4- “B” kurs talabasi

UZAQBOYEVA MUQADDDAS HAMZAYEVNA ning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “ADABIYOT DARSLARIDA DIDAKTIK
O‘YINLARDAN FOYDALANISH”**

Talaba:	M.Uzaqboyeva
Ilmiy rahbar:	f.f.n., F.Salayev, N.Allamberganova
Kafedra mudiri:	f.f.n., dots. S.Matyakupov

NUKUS – 2019

Davlat attestatsiya komissiyasi

QARORI:

5111200-o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi 4-“B” kurs talabasi Uzaqboeva Muqaddasning “Adabiyot darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga “____” ball (“____%”) qo‘yilsin.

“ ____ ” _____ 2019- yil

DAK kotibasi:

Y.Madrimova

MUNDARIJA:

KIRISH. Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi ... 4

I BOB. DIDAKTIK O‘YIN TEXNOLOGIYALARI

1.1. Didaktik o‘yinlarning mazmuni va vazifasi.. 9

1.2. Didaktik o‘yinlarning turlari va ularni olib borishga doir talablar 13

II BOB. DIDAKTIK O‘YINLARDAN O‘QUV JARAYONIDA FOYDALANISH USLUBIYOTI

2.1. Didaktik o‘yinlar – ta’lim berish vositasi sifatida..... 17

2.2. Adabiyot ta’limida didaktik o‘yin texnologiyalaridan foydalanish..... 28

III BOB. TA’LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI

3.1. Mavzuni ta’lim jarayonida amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha metodik
tavsiyalar..... 38

3.2. Dars ishlanmasi..... 40

XULOSA 49

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR. 51

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda ta’lim sohasida Prezidentimiz tashabbusi bilan Davlatimizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi

Vatanimizning kelajagi bo'lgan barkamol avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonini zamonaviy talablar darajasiga olib chiqish, ularning mustaqil fikrlashga, bilim olishga, ajdodlarimizning boy ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy merosini qadrlashga o'rgatish hamda ta'mning uzliksizligini ta'minlashdan iboratdir .

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek "Bizni yana bir o'ylantirib keladigan yana bir masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-tirishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks – sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta'kidladi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ta'lim-tarbiya sohasida ulkan odimlarni boshlab berdi. Bu esa har bir pedagog zimmasiga quyidagi asosiy talablarni – ta'lim berish, tarbiyalay olish va ta'lim oluvchining bilimlarini xolisona baholay olish, qolaversa nazorat qilish mahoratini rivojlantirish vazifasini yuklaydi.

Ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish, farzandlarimizning mustaqil fikrlash, bilim olish ko'nikmalarini shakillantirish va rivojlantirish va ta'lim sohasi vakillarining oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Barcha o'quv predmetlar qatoriga adabiyot fani asosida puxta va samarali o'zlashtirishda zamonaviy didaktik o'yinlarning o'rni katta. O'quvchilarning berilgan mavzular mazmunini tushinishi, darslarni yaxshi o'zlashtirishda o'qitish metodlari yordamida amalga oshiriladi. Bularning barchasi talab darajasida bo'lishi uchun bugungi kunda adabiyot ta'limida ham zamonaviy didaktik o'yin texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Shuning uchun biz bitiruv malakaviy ishimizni "Adabiyot darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish" deb nomlashga ahd qildik. Mavzuni 6-sinf Adabiyot fani misolida yoritib berdik.

Quyida sizning e'tiboringizga havola etayotgan ishda Adabiyot ta'limiga mos zamonaviy didaktik o'yinlar va ulardan o'quv jarayonida unumli foydalanishga doir tavsiyalar keltirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Adabiyot o'qitishda ham didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarining adabiyot fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni davr talabi darajasida shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni zamon talablari asosida puxta bilish va ko'nikmalarga ega, vatanparvar, manaviyati yuksak shaxs etib shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning beqiyos hissasi bor. Umumta'lim maktablari adabiyot ta'limida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olish, fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy didaktik o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik o'yinlarsiz mavzular mazmunini o'quvchi va talabalarga yetkazib bo'lmaydi, shunday ekan respublikamizda yosh avlodga ta'lim tarbiya berilishi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bir davrda adabiyot o'qitishda didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanish masalalari o'z dolzarbliligini yo'qotgani yo'q.

Bugungi kunda adabiyotdan dars mashg'ulotlari va unini tashkil qilishda qo'llanadigan vositalar yangilandi, imkoniyatlar kengaydi. Bu hol adabiyot ta'limda adabiyot darslarni tashkil etishda yangicha talablarlarni vujudga keltirmoqda. Shuningdek, hozirgacha ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'qitishning turli masalalariga bag'ishlab tadqiqotlar olib borildi. O'zbekiston Milliy universiteti, Nizomiy nomidagi TDPuning tegishli kafedralari o'qituvchi va tadqiqotchilari tomonidan adabiyot o'qitishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan metodik maqolalar to'plamlari, darslik va qo'llanmalar chop etildi.¹ Professor B.To'xlievning adabiyot o'qitish metodikasi borasidagi qator ilmiy ishlari, professor Q.Yo'ldoshevning "Adabiyot o'qituvchisiga metodik

¹ Bu haqda qarang: To'xliev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. T., 2006; Filologik talimda innovatsion texnologiyalar. T., 2004; O'zbek adabiyotini o'qitishning dolzarb muammolari. T., 1997; Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T., 1996; Filologik talim masalalari. T., 2007.

yordam” turkumidagi risolalari, Nizomiy nomidagi TDPU O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasini tomonidan chop qilingan maqolalar to‘plamlari, ushbu kafedra tashkil qilgan “Til va adabiyot ta’limida yangi pedagogik texnologiyalar” respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, shuningdek, respublikamizda nashr qilinayotgan “Til va adabiyot ta’limi”, “O‘zbek tili va adabiyoti” kabi manbalarda metodist olimlar va adabiyot oqituvchilari tomonidan izlanishlar olib borilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Ajiniyoz nomidagi o‘zbek adabiyoti kafedrasining “2015-2020 yillarga mo‘ljallangan BMI mavzulari banki” istiqbol rejasiga muvofiq amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi. Mazkur bitiruv malakaviy ishning maqsadi umumta’lim maktablari o‘quvchilarining adabiyot fanidan bilim olish samaradorligini oshirishda didaktik o‘yinlarni takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga tadbiiq etish. Ishning vazifalari esa quyidagicha:

- Tanlangan mavzuga oid ilmiy va ilmiy metodik adabiyotlar, jurnallardagi maqolalar, tajribali o‘qituvchilarning bu boradagi ish tajribalarini o‘rganish.
- Olingan natijalarni tahlil qilish
- Tahlil natijalariga ko‘ra ishning bugungi holatiga baho berish va didaktik o‘yinlarni takomillashtirishga doir tavsiyalar tayyorlash.
- Tavsiyalarni umumta’lim maktablarida sinab ko‘rish va samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti. Adabiyot darslarini tashkil etish haqidagi ilmiy ishlar, maktab dastur va darsliklari mazkur ishga jalb qilindi.

Tadqiqotning predmeti. Umumta’lim maktablari dastur va darsliklaridan joy olgan mavzular yuzasidan didaktik o‘yin texnologiyalarini qo‘llash usullarini tadqiq qilish.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari.

Bitiruv malakaviy ishini yozishda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning va hurmatli prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev asarlari va nutqlarida milliy mafkura va milliy g‘oya, ma’naviy qadriyatlar – til, o‘zlikni anglash, madaniy meroslarga munosabat, ajdod-u avlodlarimizga ehtirom borasida bildirgan fikr-mulohazalari hamda adabiyot o‘qitish metodikasiga oid tadqiqotlar metodologik asos vazifasini o‘tadi.

Malakaviy-bitiruv ishni yozish davomida kuzatish, tavsiflash, qiyoslash, tahlil qilish kabi usullardan keng foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. Ishda o‘zbek adabiyoti o‘qitish nazariyasi va metodikasidagi mavjud qarashlar asosida adabiyot darslarida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish haqidagi fikrlar umumlashtirilib, chuqur ilmiy-nazariy xulosalar chiqarildi. Bunda:

-adabiyot darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalar bo‘yicha munosabat bildirildi;

-hajman katta nasriy asarlarni o‘qitishdagi murakkabliklar aniqlanib, o‘quvchilar ongiga yetkazish usullari o‘rganildi.

-adabiy ta’limda o‘yin texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati haqidagi fikrlar umumlashtirildi;

-adabiyot darslarida o‘yin texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xosliklari tadqiq qilindi hamda shu asosda o‘qitish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy qimmatini adabiyot darslarida o‘yin texnologiyalaridan foydalanishga bag‘ishlanganligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, tadqiqotning xulosalari va tahlil materiallari umumta’lim maktablarining adabiyot darslarida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish masalalariga oydinlik kiritadi va o‘rgatishda adabiyot o‘qituvchilari uchun manba bo‘la oladi. Shuningdek, darsdan tashqari mashg‘ulotlarni o‘tkazishda ham tadqiqot materiallaridan unumli foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. BMI Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI o‘zbek adabiyoti kafedrasi yig‘ilishida muhokama qilinib,

himoyaga tavsiya qilingan. Tadqiqot natijalari yuzasidan Nukus shahri 38-maktab pedagogik kengashida ma'ruza qilingan va ochiq dars o'tkazilgan.

Ishning tuzilishi va hajmi. BMI uch bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi --- sahifani tashkil qiladi.

I BOB. DIDAKTIK O'YIN TEXNOLOGIYALARI

1.1. Didaktik o'yinlarning mazmuni va vazifasi

Insonning faolyatida o'qitish har doim juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ta'lim tasodifiy intiutiv xususiyatga ega bo'lganda ham va asosan

tasodifan axborotlarni berish hamda taqlid qilishdan iborat bo'lganda ham shunday bo'lgan, keyinchalik ham ta'lim maqsadga, jarayonga aylanganda maktab paydo bo'lganda ham shunday bo'lgan. Biroq uzoq vaqt davomida ta'limni nazariy tahlil qilish va o'rganish ishlari olib borilmadi. Shuning uchun o'z nazaryasiga ega bo'lmadi.

Faqatgina XVII asr bu sohada muhim o'zgarishlar olib keldi. Aynan o'sha payitda ta'lim alohida nom oldi va tarixda birinchi didaktik faoliyatning ilmiy asoslangan tizimiga asos solinadi. Didaktika yunoncha "didaktikos" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'qitish, o'rganish ma'nosini bildiradi.

Didaktika ta'limning nazariy jihatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari qonuniyatlari o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi shakli, metod vositalari natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hakozi muammolar) ni o'rganuvchi fan. Bu tushunchani buyuk Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670 yillar) "Buyuk didaktika (1657 yil) nomli mashhur asarida tilga oladi. Lekin Komenskiy didaktika faqat ta'limgina emas balki tarbiyalash ham"- deb ta'kidlaydi. Mazkur asarda olim ta'lim nazaryasining muhim masalalari, ta'lim mazmuni, ta'limning ko'rgazmaliligi ketma-ketligi kabi tamoyillari sinf darajasi tizimi borasida so'z yuritadi. Didaktikaning predmeti ta'lim tarbiya muassasi sharoitida, muallimning rahbarligi ostida amalga oshadigan o'quv jarayonidir.

Didaktikada ana shu jarayonning qonuniyatlari tadqiq qilinadi, har xil tipdagi ta'lim tarbiya muassasalarda u yoki bu darajada beriladigan ta'lim mazmunini belgilashning ilmiy asoslari o'qitish vositalari va metodikalarning samaradorligini oshirish yo'llari hamda ta'limning tashkiliy shakllari ishlab chiqiladi. Ta'lim jarayonidagi o'quvchining faolligi, didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. O'quvchining faolligi, maqsadli yo'naltirilgan boshqaruvchi pedagogik ta'sirlar va pedagogik muhitning tashkil etilishi natijasidir. O'yin faoliyatiga qiziqish, o'quvchilarning o'z-o'zini ifoda etish, ro'yobga chiqarish kabi ehtiyojlarini qondiruvchi, musobaqalashish elementlari orqali ta'minlanadi.

Didaktik o'yin, o'qitishning aniq qo'yilgan maqsadi va unga tegishli pedagogik natija bilan belgilanadi. Bu natijalar asoslangan va o'quv tayyorgarlik faoliyatiga ega bo'ladi. Didaktik o'yinlar o'yin uslubiga ko'ra quyidagicha tavsiflanadi: fanlar bo'yicha; syujetli; ishbilarmonlik, dramalashtirilgan o'yinlar. Umumta'lim tizimida foydalanadigan barcha didaktik o'yinlar o'z mazmuniga ko'ra ishbilarmonlik o'yini hisoblanadi. Chunki ular, odatda ma'lum o'quv fani doirasida ishlab chiqiladi: rollar va syujetlar mavjud bo'ladi, turli vaziyatlar immitastiya qilinadi. Ya'ni, umumta'lim maktablarida qo'llaniladigan ishbilarmonlik o'yinlari didaktik o'yinlarning barcha tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi.

Umumta'lim maktablari ta'lim tizimidagi didaktik o'yinlar yangi o'quv materialini o'zlashtirishga va mustahkamlashga, o'quvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantiruvchi, umumilmiy ko'nikmalarini shakllantiruvchi masalalar majmualarini yechishga qaratiladi, o'quvchilarga turli holatlardan o'quv materialini tushunib yetish va o'rganish imkonini beradi. O'quv jarayonida ishbilarmonlar o'yinlarining turli xil shakllari ishlatiladi: imitastion, operastion, rolli o'yinlar, ishchi teatr, psixo va sostiodramalar.

O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Pedagogik texnologiyada rivojlantiruvchi texnologiya ham asosiy ahamiyat kasb etadi. Rivojlantiruvchi texnologiyalarning ma'lum yo'nalishi aniq bo'lishi lozim. Undagi ta'lim tizimi albatta tugallanishi shart.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

D.N. Uznadzening ta'rificha, o'yin shaxsga xos bo'gan ichki immanent psixik (ruhiy) xulqi shaklidir.

L.S. Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi.

A.N.Leontev o'yinga shaxsning hayolotdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni hayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

Psixologlar ta'kidlaydilarki, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi.

Tadqiqotchilar o'yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. O'yinlarning muhim qirralari S.A.Shmakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlariga ko'ra, faoliyat jarayonining o'zidan bahra olish uchun qo'llanadi.

O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga – "ijod maydoni"ga ega bo'ladi. O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi. O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko'zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo'lishini ko'rsatadilar.

Tadqiqotchilar nazariy aspektda o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar. O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs sub'ekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'yinli faoliyatni motivastiyalash o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o'yin tuzilmasi (G.K. Selevko ta'biricha) quyidagilarni qamrab oladi:

- o'ynash uchun olingan rollar;
- bu rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yin harakatlari;

- predmetlarni, ya'ni haqiqiy narsalarni shartli, o'yin narsalari o'rnida qo'llash;

- o'yinda ishtirok etuvchilarning real o'zaro munosabatlari;
- o'yinda shartli ravishda yaratilgan syujet (mazmun) - ijro sohasi.

O'yindan tushunchalar, mavzu va hatto o'quv predmeti bo'limini o'zlashtirishda o'qitish uslubi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi. O'yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.

O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo'llanadi.

O'yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash, umumta'lim malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.

O'yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog'ishtirish, o'xshashini topish, faraz, hayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o'quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan.

1.2. Didaktik o'yinlarning turlari va ularni olib borishga doir talablar

Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o'yin degan tushuncha mavjud. Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator uslublari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o'yinlar "o'yinli pedagogik texnologiyalar" ni tashkil etadi. Pedagogik o'yinda ta'limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo'yiladi. Pedagogik o'yinlar asosida o'quvchilarni o'quv faoliyatiga yo'llovchi

o‘yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi. G.K. Selevko tomonidan pedagogik o‘yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

Pedagogik o‘yinlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda bo‘ladi:

- didaktik maqsad o‘yinli vazifa shaklida qo‘yiladi;
- o‘quv faoliyati o‘yin qoidalariga bo‘ysunadi;
- o‘quv materialidan o‘yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o‘quv jarayoniga didaktik vazifa o‘yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;
- didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o‘yin natijalari bilan bog‘lanadi.

Didaktika pedagogikaning ta‘lim va o‘qitish nazariyasini ishlab chiqadigan tarmog‘idir. Hozirgi davrda didaktika o‘qitishning mazmuni metodlari va tashkiliy shakllari ilmiy asoslab beruvchi pedagogika sohasi sifatida tushuniladi. Umumiy didaktikadan tashqari, xususiy didaktikalar yoki alohida fanlar bo‘yicha ta‘lim metodikasi deb ataluvchi didaktikalar ham mavjud. Ularning mazmuni ta‘limning ma‘lum bosqichlarida u yoki bu fanlarni o‘rganish va ta‘lim berishning nazariy asoslarini belgilaydi. Har bir o‘qituvchi didaktika asoslarini puxta bilishlari va ularga tayangan holda faoliyatini tashkil etishi zarur. Didaktika predmetini aniqlash bo‘yicha turli qarashlar ilgari surilgan. Qarashlarning turlicha bo‘lishi didaktikaning metadalogik kategoriyalarining aniq ajratilmaganligi bilan bog‘liq.

So‘ngi paytlarda asosiy didaktik kategoriyalar sirasiga ta‘limning didaktik tizimi va ta‘lim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham kiritish taklifi ilgari surilmoqda.

1. Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma‘lum obrazlar ko‘rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma‘lumotlar majmui.

2. Bilim olish - idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat, ko'nikma, malakalarning mustahkamlanib mavjud bilimlarning takomillashib boyib borish jarayoni.

3. Ko'nikma – olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi.

4. Malaka – ongli xatti- harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

5. Ta'lim – o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish ularning bilish qobiliyatini o'stirish, dunyoqarashini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.

6. Ta'limiy metodlar – ta'lim jarayonida qo'llanilib uning samarasini taminlovchi usullar majmui.

7. Ta'lim mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tamonlama rivojlantirish, dunyo qarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

8. Ta'lim vositalari – ta'lim samaradorligini ta'minlovchi obyektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, ko'rgazma, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va subyektiv (o'quvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

9. Ta'lim jarayoni – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida tashkil etuvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

10. Ta'lim mazmuni - Davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

11. Ta'lim maqsadi – (o'qish, bilim olish maqsadi) ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya.

12. Talim natijasi – (ta'lim mahsuli) ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha o'quv jarayonining oqibati belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

13. Ta'limni boshqarish – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbolini belgilash.

14. Ta'lim tizimi – yosh avlodga ta'lim - tarbiya berish yo'lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi o'quv tarbiya muassasalari majmui.

Ta'lim jarayoni psixologik - pedagogik konsepsiyalar (ular aksariyat hollarda didaktik tizimlar deb ham ataladi) asosida tashkil etiladi. Didaktik tizim - (yunoncha "systema" yaxlit qismlardan tashkil topgan birlashtirish) ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayonining yaxlit holatini belgilash ajratib ko'rsatish demakdir. U ta'limning maqsadi, tamoyillari, mazmuni, shakli, metod va vositalarining birligi asosida tashkil etilgan tuzilmalarining ichki yaxlitligini ifodalaydi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda talabaning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli talabalarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar, didaktik o'yinli darslar deb ataladi. Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga va mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi.
- o'yin davomida shaxsning muloqatga kirishishi ya'ni komunativ - muloqat madaniyatini egallash uchun yordam beriladi.
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi.
- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarini tarkib topishiga yordam beradi.
- o'yin jarayonida ijtimoiy normallarga mos xulq - atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi.
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi.
- insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, manaviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi.

– o‘yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqat madaniyatini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Didaktik o‘yinlar texnologiyalari o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijobiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ta’lqin qilish, hisoblash, o‘lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash axloq - odob o‘rgatish, nutq o‘stirish til o‘rgatish, yangi bilimlar o‘rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘yinlarga ajratiladi.

Didaktik o‘yinlardan amalda foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo‘lgan ta’limiy, tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi. Turli o‘quv fanlariga oid didaktik o‘yinlar mavjud bo‘lib, ular shu fanlarni sifatli o‘rgatish maqsadlariga xizmat qiladi.

II BOB. DIDAKTIK O‘YINLARDAN O‘QUV JARAYONIDA FOYDALANISH USLUBIYOTI

2.1. Didaktik o‘yinlar ta’lim berish vositasi sifatida

Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy), harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bu o‘yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko‘nikmalarni

rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, ro'li, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlardan foydalaniladi va alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda.

Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional mavzuli konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini berishi bilan alohida o'ringa ega. O'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakllari hisoblanadi. Bu esa pedagog va psixolog olimlar tomonidan shu yosh davridagi o'yinlarning ta'limiy, tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish va yanada oshirish bo'yicha tadqiqot olib borishiga asos bo'ldi. Natijada oldingi asrning 60-yillari boshida AQSH so'ngra boshqa G'arb mamlakatlarida ishchanlik o'yinlari qo'llanila boshlandi. Ishchanlik o'yinlari tadqiqotchilari bu usulni eng asosiy samarali va tejamli ta'lim metodlaridan iborat deb takidlaganlar. Didaktik o'yinning yana bir turi aqliy hujum usulini birinchi marta 1939-yilda A.F.Osborn qo'llagan. Bu usulni g'oyalarni banki deb ham nomlagan. U muammolarni quyidagicha yechishga asoslanadi:

- muammoli vaziyat yaratish;
- g'oyalarni shakllantirish;
- eng yaxshi g'oyalarni tekshirish va baholash va tanlash.

“Ta'lim texnologiyasi” tushunchasi “ Ta'lim metodikasi” tushunchasiga nisbatan kengdir. Ta'lim metodi — o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, ta'lim metodikasi esa muayyan o'quv predmetni o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimini ifodalaydi.

Ta'lim texnologiyasi — ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarishni ifodalaydi.

O'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasidan farqli o'laroq, ta'lim texnologiyasi o'quvchilar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u o'quvchilarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi — o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat.

“Ta'lim texnologiyasi” xususida yaratilgan adabiyotlarda ushbu tushunchaga berilgan ta'riflarga asoslangan holda biz ushbu tushunchani quyidagicha sharhlashimiz mumkin; pedagogik texnologiya muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.

Pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik tizimni pedagogik texnologiyaning asosi ekanligini e'tirof etgan holda uni quyidagi unsurlaridan iboratdir deya ta'kidlaydi:

- 1) o'quvchi;
- 2) ta'lim -tarbiyaning maqsadi;
- 3) ta'lim - tarbiya mazmuni;
- 4) o'quv jarayoni;
- 5) o'qituvchi yoki texnik vositalar;
- 6) ta'lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari²

² Bespalko V.P. Слагаемые педагогической технологии \M.: Педагогика, 1989. – с.6-7.

Demak, pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya faoliyatining yaxlit jarayoni to'g'risidagi fan ekanligini e'tirof etish lozim.

Ayniqsa, o'qitishga interfaol dars usullarini, "Kichik guruhlarda ishlash", «Breyn-ring» usullari qo'llanganda o'quvchilar o'qituvchi bilan birga teng faoliyat ko'rsatadilar. Agar o'quvchi o'z-o'zini o'qitsa, o'qituvchi o'quvchini yakka tartibda o'rgatsa, o'qituv materialining 90 foizini o'zlashtiradi. Darsda ta'limning interfaol usullaridan biri "Kichik guruhlarda ishlash" texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur texnologiyani qo'llash usuli quyidagilardan iborat:

- faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Muammodan bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi;
- kerakli asos yaratiladi. O'quvchilar mazkur mavzu haqida ko'proq tushunchaga ega bo'lishlari kerak;
- guruhlar belgilanadi. O'quvchilar 7-8 kishidan iborat bo'lib guruhlariga bo'linadi;
- aniq ko'rsatma beriladi. Mustaqil ish, krossvord, test tuzish;
- boshlovchi o'quvchi oldindan tayinlanadi. O'tilgan mavzu yoki bo'lim bo'yicha mustaqil, o'z ustida ishlab, savollar tuzib keladi, krossvord, test javoblarini baholaydi;
- ekspert yoki yordamchi (assistent) o'quvchi tayinlanadi, ular o'yinni olib borishda yordam beradilar, javoblarni baholab, tahlil qilib beradilar;
- guruhlardan sardorlar saylanadi. Sardor - hushyor shaxs, o'z guruhi uchun o'yin qoidalarini buzmaganda jon kuydiradi;
- o'qituvchi tomonidan esa jarayon qo'llab-quvvatlanib va yo'naltirilib turiladi. U o'yinni nazorat qilib turadi, o'yin yakunlangach, o'quvchilarning umumiy balini e'lon qiladi. So'ngra muhokama qilinadi;

- doskaga 3ta guruhga bo‘lingan o‘quvchilar familiyasi yozib qo‘yiladi, dars maqsadi bo‘yicha maksimal ballar ko‘rsatilgan bo‘ladi, reja bo‘yicha to‘plangan har bir ball o‘quvchi familiyasi qarshisiga yozilib boriladi.
- O‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘zaro ta’siri natijasida o‘quvchi ma’lum bilimlarni shunchaki o‘zlashtirib, ya’ni o‘rganib olishidan tashqari bir vaqtning o‘zida bilim olish va xatti-harakatlar qilishning yangi tamoyili va metodini o‘zlashtirib oladi va rivojlantirib boradi.
- Odatda o‘qituvchi xorijiy tilni o‘rgatish, o‘qitish usulini o‘zi tanlaydi. Kursning mazmuni deyarli o‘zgarmaydi, ammo uni o‘quvchiga yetkazib berish usuli o‘zgarishi mumkin.
- Agar vazifa biror dalil berish haqida bo‘lsa, taqdimot yoki interfaol ma’ruza kabi usullar eng samarali usullar hisoblanadi. Muammolarni muhokama qilishda eng ma’qul usul o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib jamoaviy bahs-munozara o‘tkazishdir. Bunda bahs-munozara Discussion, Brainstorming usulidan foydalanish mumkin.

Ma’lumki, o‘quvchilarning mustaqil keng va puxta bilim olishlarida syujetli, rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, konferensiya, o‘yin mashqlari kabi didaktik o‘yinlar o‘zining ta’lim-tarbiya beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, o‘quv materiallarini takrorlovchi, bilimlarni nazorat qiluvchi o‘yinlar sifatida ifoda etilishi bilan ahamiyatlidir. O‘quvchilarning ijodiy fikrlash, mustaqil bilim egallash ko‘nikmalarini rivojlantirishda ularning o‘zlarida bor bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarini yangi vaziyatda qo‘llash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirishida didaktik o‘yinlarning o‘rni alohida ajralib turadi. Bunda ularning bir-biridan farqlanishi va o‘ziga xos tavsifga ega ekanligiga e’tibor beriladi. Ijodiy o‘yinlar-talabalarning ijodiy izlanish, mantiqiy fikr yuritishini rivojlantirish va qo‘shimcha bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan o‘yinlardir. Bu o‘yinlar ta’sirida o‘quvchi ijodiy izlanib, yangiliklarni kashf etadi va uni hayotida qo‘llaydi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonida mustaqil ish, dars jarayonida mustaqil o‘qish va o‘rganish, yangi materialni tushuntirish va mustahkamlash, turli

ijtimoiy foydali faoliyatlar, topshiriq va mashqlarni bajarish, fan bo'yicha o'tilgan materiallarni takrorlash, test-sinov topshiriqlarini bajarish muhim. Shuningdek, savol-javob, bahs-munozara yuritish, sayr-sayohatlar uyushtirish, shaxsiy taassurotlarini himoya qilish, mustaqil o'qishning sahna va kino ko'rinishini tashkil etish, kitob bilan mustaqil ishlash, soha bo'yicha amaliy ishlarni mustaqil bajarish, dastur yo'nalishida badiiy adabiyotlarni tahlil etish asosida mustaqil ishlashning ahamiyati kattadir. Bu ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish har qanday soha faoliyatida ijobiy o'zgarishlarni sodir etadi. Eng muhimi o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishda texnologik yondoshuv o'quv jarayonini yanada faollashtiradi, o'quv materiallarining o'zlashtirishida yuqori darajaga erishiladi.

Ishchanlik o'yin darsi – dars mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi.

Ro'lli o'yin darsi – dars mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha chuqur, aniq ma'lumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi – tegishli o'quv fani bo'yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimediya, virtual o'quv kursi va shu kabilar) asosida o'tiladigan dars.

Kim oshdi savdosi darsi – o'quv fani ayrim bo'limi bo'yicha bilimlarni har bir o'quvchi qanchalik ko'p bilishini namoyish etish darsi.

Yarmarka darsi – dars mavzusini bo'laklar bo'yicha oldindan o'zlashtirish o'quvchilarning o'zaro muloqat asosida sinfga qiziqarli tushuntirish orqali o'tiladigan dars.

O'yin darsi – dars mavzusiga mos o'yin orqali o'quvchilarning o'zlashtirishlarini tashkil etish darsi.

Sud darsi – o‘quvchilar bilan dars mavzusiga mos “sud” jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni tashkillashtirish darsi.

Konsert darsi – dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi konsert shaklida ifodalash mashqlari bo‘lib, o‘quvchilarni faollashtirish va bilimni mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Tergovchi bilimdonlar olib boradigan darsi – dars mavzusini oldindan puxta o‘rgangan o‘quvchilar yordamida qiziqarli savol – javoblar, tahlillar asosida isbotlab, tushuntirish mashqlari bo‘lib, bunda o‘quvchilar dars mavzusini o‘zlashtirib eslab qolishlari uchun qulaylik yaratadilar.

Integral (integratsiyalangan) dars – bir nechta fanlarga doir integratsiyalash uchun qulay bo‘lgan mavzular bo‘yicha tashkil qilingan dars bo‘lib, o‘quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib ta’lim jarayonidagi faolliklarini taminlaydi.

Bunday darslar o‘quvchilarga fanlararo bog‘liqlikni o‘rgatish orqali ularda odam tuzilishining ilmiy asoslarini to‘liq idrok etish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish ijodiy tafakkurlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mo‘jizalar maydoni darsi o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan qiziqarli o‘yinlar bo‘lib turli savollarga belgilangan vaqt davomida to‘g‘ri javoblar topish va g‘oliblarni rag‘batlantirish orqali o‘quvchilarda fikrlash, topqirlik va ziyraklik, bilimlarni kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi. Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarni o‘quvchilarning bilim olish va o‘yin faoliyatining uyg‘unligiga qarab syujetli, ro‘lli o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar, ishbilarmonlar, konferensiyalar kabi o‘yin mashqlariga ajratish mumkin. O‘qituvchi pedagog, avval o‘quvchilarni individual (yakka tartibdagi) so‘ngra guruhli o‘yinlarga tayyorlashi va uni o‘tkazishi, o‘yin muvaffaqiyatli chiqqandan so‘ng esa ularni ommaviy o‘yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o‘quvchilar didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lishlari, bundan tashqari guruh jamoasi o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga kelishi lozim.

O'qituvchi-pedagog didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazishda qizg'in tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

- 1) Didaktik o'yinli mashg'ulotlar dasturida qayd etilgan mavzularning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi
- 2) Jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag'ishlanib, ular o'yin davomida hal qilishi
- 3) Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-axloq normalariga mos kelishi
- 4) O'yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo'lishi
- 5) Mashg'ulotlar davomida didaktik prinsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishishi kerak.

Quyida adabiyot o'qitishda tashkil etish va o'tkazish mumkin bo'lgan didaktik o'yinli mashg'ulotlardan ayrimlarining tavsilotlari keltiriladi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlar orasida konferensiya mashg'ulotlari ham muhim o'rin tutadi. Konferensiya mashg'ulotlari o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda ilmiy dunyo qarashini kengaytirishda, qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirishda, ilmiy va ilmiy-ommabob adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarni orttirish, mustaqil hayotga ongli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi

Konferensiya mashg'ulotini o'tishdan oldin mashg'ulot mavzusini maqsad va vazifalarini belgilab, shu mavzuga oid qo'shimcha ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar ko'zdan kechiriladi. Mashg'ulotni o'tishdan bir hafta oldin mashg'ulot mavzusi e'lon qilinib unga tayyorgarlik ko'rish uchun adabiyotlar tavsiya etiladi. Ushbu mashg'ulotda "Olimlar" ro'lini tanlash, mavzuni har tomonlama yoritish, maruza tayyorlash talabani ixtiyorida bo'ladi. Ilmiy konferensiya mashg'ulotini quyidagicha o'tkazish tavsiya etiladi.

Didaktik o'yinlarni tanlashda o'quvchilarga bilim va tarbiya berishning quyidagi tartib qoidalariga rioya qilinadi.

1. Didaktik o'yinlar tanlash va ulardan foydalanishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari pedagogik jihatdan tayyorgarligi va bilim saviyasi hisobga olinadi.

2. Tanlangan har bir o'yin o'quvchilarga sistemali bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish bilan birga ularning barkamol bo'lib yetishishiga va ruhan tetik o'sishiga qaratilgan bo'ladi.

3. Didaktik o'yinlarni tanlashda ta'limning aniq maqsad va vazifalari asos qilib olinadi. Didaktik o'yinlar ta'lim mazmunini aniqlashtirishning muhim vositalaridan biri. U o'quvchilarda o'qish motivini. Istagini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Didaktik o'yin - ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishishga, ya'ni o'tilgan o'quv materiallarini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Masalan doiraviy misollar o'yinida ikkinchi o'nlik ichida hisoblash malakalarini mustahkamlashdan iborat bo'lgan didaktik topshiriq qo'yiladi. Didaktik topshiriq darsga qo'yiladigan umumiy maqsadining bir qismini tashkil qiladi. Har bir didaktik o'yinning ham, har qanday o'yindagi singari qoidalari bo'ladi. O'sha qoidalarga amal qilinmasa o'yinning o'yin sifatidagi ahamiyati, binobarin o'yinning ta'limiy, tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo'qoladi. O'yin qoidalari o'yin topshirig'iga kiritiladi.

O'yin topshirig'i – o'qituvchining bolalarga o'yinning qanday o'ynalishini, kim g'olibligini aniqlashdan iborat. Har bir didaktik o'yin o'z navbatida quyidagi komponentlardan tuziladi: o'yin maqsadi, qoidalari, jihozi, mazmuni, natijasi.

1. O'yin qoidalari. O'yinni olib borish va unga qatnashish tarkibini aniqlab beradi. Qoidalar o'yin maqsadiga mos holda o'quvchilar faoliyatini tartibga solish uchun kerak bo'ladi.

2. O'yin mazmuni o'quvchilarning bajarishi kerak bo'lgan harakatlari bilan aniqlanadi, adabiyot darsida bu harakatlar ko'proq misol va tajriba masalalar yechishdan iborat bo'ladi. O'yin jihozi o'yinni o'tkazish uchun kerak bo'lgan


predmet, modellar real va shartli predmetlar, kartochnka va ko'rgazmalardan iborat.

O'yin natijasi. Qo'yilgan vazifaning bajarilishi bilan aniqlanadi. Natija o'quvchilarni qoniqtirishi kerak. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar o'quvchilarda ijtimoiy normalarga xos ongli intizomning vujudga kelishi, motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi, bilim, ko'nikma va malakalarni ongli o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi, ko'zlangan natijaning kafolatlanganligi va samaradorlikning yuqori bo'lishi bilan xarakterlanadi.


Ushbu texnologiyalar jumlasiga didaktik-o'yin, muammoli ta'lim, modulli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, kommunikativ ta'lim, o'quv materiallarining (jadval va belgili) modellari texnologiyalari kiradi.

Demak, adabiy ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyani qo'llash ma'lum qolip asosida fikrlashni emas, balki umumiy yechimga xilma-xil ijodiy izlanishlar orqali kelishini ta'qozo etadi. Asosiy maqsadga erishish faqat tushuntirish va aniqlash jarayoni bilan chegaralanmaydi. Masalan, Adabiyot darslari jarayonida o'quvchilarning ma'lum bir vaqt ichida o'qituvchi tomonidan berilgan bilimlarni o'zlashtirishi o'sha bilimlarni takrorlay olishi va amaliyotda qo'llashi bilan belgilanadi. Buning uchun o'qituvchi dars jarayonida qabul qilingan standart matnlarga ijodiy yondashishi va ta'lim mazmuni va maqsadiga mos usul hamda vositalardan unumli foydalanishi lozim bo'ladi.

Didaktik o'yinli dars va uning turlari



Umumta'lim maktablarida Adabiyot ta'limi samaradorligini oshirishda taklif etilayotgan didaktik o'yinlar



2.2. Adabiyot ta'limida didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanish

Didaktik o'yinlarni tanlashda ishtirokchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinadi. Har bir didaktik o'yin mashg'ulotlarida

o'ziga xos xavfsizlik talablari qo'yiladi. Bu xavfsizlik talablariga to'liq rioya qilinishi har bir tashkilotchining doimiy e'tiborida bo'lishi lozim. Bundan tashqari har bir didaktik o'yin uchun sarflanadigan vaqt miqdorini to'g'ri belgilash va unga rioya qilishning o'ziga hos asoslarini bilish va darsning maqsadiga muvofiq qo'llash talab qilinadi.

Har bir didaktik o'yin jarayonida o'ziga xos vositalar turlari qo'llaniladi va mashg'ulot jarayonida ulardan to'g'ri, unumli va xavfsiz foydalanish lozim. Bu vositalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin.

- o'quv qurollari turli o'lchamlardagi oq va rangli qog'ozlar, skoch, flomasterlar, ruchka, qalam, chizg'ichlar, qaychi, yelim va boshqalar.
- texnika vositalari – proektor, mikrofon, kompyuter, video kamera, video magnitafon, televizor va boshqalar.
- mahalliy-tabiiy materiallardan tayyorlangan vositalar.

Didaktik o'yinlar tashkilotchilari ular uchun ishlatiladigan har bir material bilan ishlash, ulardan tegishli didaktik vositalarni tayyorlash hamda xavfsizlikni taminlash texnologiyalarini puxta bilishlari va rioya qilishlari lozim. Chunki didaktik vositalarning sifati, ko'zda tutilgan maqsadlarga mosligi, qulayligi va ulardan to'g'ri foydalanish mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi

Didaktik o'yin turlarini tanlash mezonlari.

- ishtirokchilar tarkibi bo'yicha – o'g'il bolalar, qiz bolalar, o'smirlar, katta yoshdagilar uchun o'yinlar.
- ishtirokchilar soni bo'yicha - yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, raqobatdosh komandalar, sinflar aro va ommaviy o'yinlar.
- O'yin jarayoni bo'yicha fikrlash, o'ylash, topag'onlik, xarakatchanlik, musoboqa va boshqalarga yo'naltirilgan o'yinlar.
- vaqt me'yorini bo'yicha dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'olib yoki g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan va boshqa o'yinlar.

Talim tizimida didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarni muloqatga kirishish ko‘nikma va malakasini shakllantirib, o‘zaro yordam berish odatlarini rivojlantiradi hamda o‘quvchilarni bilim saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunning vazifalarini amalga oshirishda o‘qitishning chuqur ijtimoiy e‘tiqodlilik bilan uyg‘un ilmiyligiga qo‘yilayotgan talablar g‘oyatda muhimdir didaktikada o‘qitishning ilmiyligi nima ekanligi asosli ravishda bayon qilinadi. Malumki, maktab ta’limini mazmuniga kirgan barcha bilimlar voqeylik qanday bo‘lsa uni shundayligicha, hech bir qo‘shimchalarsiz aks ettiradi. Pedagogning vazifasi o‘quvchilarga ilmiy, haqqoniy bilimlarni asli holicha tushuntirishdan, ularni bilimlarini mustaqil o‘rganishlarida o‘zlashtirilgan haqiqatlar borliqdagi inson ongidan tashqari obyektiv mavjud narsalarga muvofiqligini kafolatlaydigan yo‘lga solishdan iboratdir. Hatto bolalar ta’limining birinchi pog‘onasida olgan juziy bilimlar ham haqiqatni buzmasligi kerak.

Adabiyot darslarida topishmoqli o‘yinlar, rasimli o‘yinlardan foydalanish mumkin. O‘yin tarbiya vositasi sifatida; tafakkur, nutq, hayol, xotira kabi psixologik jarayonlarni kengaytirish va mustahkamlash vositasi sifatida qo‘llanishi mumkin. Masalan:

“DOMINO” o‘yini

“Domino o‘yini” ni o‘ynashda to‘g‘ri to‘rtburchakli kichik qog‘ozni dominodek o‘rtasiga chiziq tortib, chap tarafida savol, o‘ng tarafida umuman boshqa savolning javobi yoziladi, ana shunday dominolardan bir nechta 10-12 ta qilib tayyorlanadi. O‘yin oldidan hakamlar hay’ati saylanadi, 3-4 ta o‘quvchi (guruh) o‘ynaydi.

O‘yinning borishi: bir o‘quvchi bitta dominoni qo‘yadi, bu dominoning chap tarafidagi savolga javob kimda bo‘lsa, shu o‘quvchi dominosini qo‘yadi, bu dominoning ham chap tarafidagi savolga keyingi o‘quvchi dominosini qo‘yadi yoki o‘sha javobning egasi javob beradi. Shu dominolarni to‘rtburchak shaklida terib, oxirgi dominoning savoliga birinchi qo‘yilgan dominoning javobi to‘g‘ri kelishi kerak, ya’ni “domino” hosil bo‘ladi.

Kimda dominochalar tez tugasa, shu o‘yindan tez chiqadi va ko‘proq ball oladi. Agarda savollarga noto‘g‘ri javob berilsa, unda kerakli shakl hosil bo‘lmaydi, to‘rtburchak ochiq qoladi.

Bu o‘yinning ta’limiy maqsadi o‘quvchilarning darslarda olgan bilimlarini tez va ongli ravishda amalda qo‘llay bilishni o‘rgatishdir.

1-guruh uchun “Domino”:

<p>P.Qodirovning “Ona lochin vidosi” romanidagi Ibn Ali, Ahmad Tarxon, Bobo Husayn, Habiba Sulton, Robiya Sulton, Uvays Tarxon, Sherhoji kabilar</p>	<p>ROMANTIK OBRAZ</p>
--	------------------------------

<p>Bunday obrazlar, garchi yozuvchi yashab turgan jamiyatda bo‘lmasa-da, yozuvchi orzu qilgan voqelikning ifodasi hisoblanadi.</p>	<p>TARIXIY OBRAZ</p>
--	-----------------------------

<p>Oybekning “Navoiy” romanidagi Navoiy, P.Qodirovning “Yulduzli tunlar”idagi Bobur, O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasasi”dagi Ali Qushchi</p>	<p>ADABIY TIP</p>
--	--------------------------

<p>Muayyan guruh, ijtimoiy tabaqa, sinf vakillarining ma’lum xususiyatlarini va iroda yo‘nalishini to‘la, yorqin aks ettiruvchi mukammal xarakter</p>	<p>ALLEGORIK OBRAZ</p>
---	-------------------------------

<p>Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi</p>	
---	--

Toshbaqa, Chayon, Maymun, Tuya, Bo‘taloq kabilar	PERSONAJ
---	-----------------

2-guruh uchun “Domino”:

Asar voqealarining markazida turib, asar syujetini harakatga keltiradigan va oxirigacha rivojlantiradigan, asar bosh g‘oyasini o‘zida tashiydigan shaxslar	SALBIY OBRAZ
---	---------------------

A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi Homid, Sodiq, Mutal, Jannat kampir, P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanidagi Ahmad Tanbal	XARAKTER
--	-----------------

Aniq iroda yo‘nalishiga ega bo‘lgan, o‘z xatti-harakatlari, o‘y-xayollari, dunyoqarashi, fe‘l-atvori bilan ajralib turadigan to‘laqonli shaxslar obrazi	AFSONAVIY OBRAZLAR
--	---------------------------

“Alpomish” dostonidagi Alpomish, “Chambil qamali”dagi Go‘ro‘g‘li, “Malikai ayyor” dostonidagi Avazxon	REALISTIK OBRAZ
---	------------------------

Xarakter xususiyatlari, faoliyati hayotdagi real odamlarga mos keladigan tarzda umumlashtirib va	BOSH OBRAZ
--	-------------------

aniqlashtirib, tipik sharoitda haqqoniylashtirib yaratiladigan obrazlar	
---	--

Rolli o‘yin

Rolli o‘yinlar metodi shundan iboratki, o‘quvchi o‘zi uchun notanish bo‘lgan, turli xil xarakterli inson obraziga qalban kirishib ketadi. O‘yinda, asosan, o‘quvchilarga muammoli sahna ko‘rinish (vaziyat) rollari beriladi. O‘quvchilar ushbu muammoli rollarni mustaqil ravishda ijro etib, rol o‘ynashlari shart.

Rolli o‘yinlar o‘quvchilarni rahm-shafqatli, mehr-muruvvatli bo‘lishga, boshqa insonlarni tushunishga o‘rgatadi. O‘zi uchun notanish bo‘lgan, turli xil xarakterdagi rollarni o‘ynashlari asosida, ularning dunyoqarashlari, fikr-mulohazalari, nimalar haqida o‘ylashlari, ularning nozik tabiati haqida o‘quvchilar keng tushunchaga ega bo‘ladilar va insonlardagi mavjud bo‘lgan his-tuyg‘ularni qabul qilish qobiliyati shakllanadi. Ushbu metod o‘quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, hayotda har qanday sharoitda ham o‘zini tuta bilishga hamda mustaqil hayot kechirishdagi o‘zining dunyo qarashlarini asoslab bera oladigan inson sifatida shakllantiradi.

Rolli o‘yinlarni dars mashg‘ulotlarida o‘tkazishda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Muammoli sahna ko‘rinishi(vaziyat)ni tanlab olish.

Badiiy asarlarda juda ko‘p muammoli ko‘rinishlar uchraydi, rolli o‘yinlarni o‘tkazishda bular tayyor material bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ular o‘ziga xos xususiyatlarga ega, muammoli bo‘lib, uning yechimini topish o‘ziga yarasha qiyin kechadi. Nihoyat, muammoli sahna ko‘rinishi (vaziyat) orqali o‘quvchilarda dildan suhbatlashish, muloqot qila bilish, yechimi hal qilingan masalani asoslab bera olish, o‘z mustaqil fikrini asoslash, himoya qila olish kabilar shakllanadi.

1. Tayyorgarlik ko‘rish.

O'quvchilar muammoli sahna ko'rinish (vaziyat) bilan tanishib chiqadilar. Ular o'yin rollarini bo'lib oladilar hamda o'z rollari ustida mashq qiladilar, ishlaydilar.

3. O'quvchilarni rollarga tanlab olish.

O'qituvchi o'quvchilarga rollarni bo'lib berish huquqiga ega yoki o'quvchilarga rollarni o'zlari tanlashga imkon yaratib berishi hamda ba'zi bir rolga o'quvchilarni tashqaridan jalb qilishi mumkin.

4. O'yinni o'tkazish.

O'quvchilar o'zlariga bo'lib berilgan rollarni o'z mustaqil fikr-g'oyalaridan kelib chiqib, o'sha obraz hayotda qanday yo'l tutishi haqida fikr-mulohaza yuritib o'ynaydilar. O'qituvchi o'yin davomida tomoshabin sifatida bo'ladi. Ayrim hollardagina o'yinga aralashishi mumkin. Bunda qisqa, aniq va lo'nda harakat qilish kerak bo'ladi.

5. Muhokama.

Rollar, muammoli o'yinlar muhokama qilinadi va baholanadi. O'yin ishtirokchilari, tomoshabinlar o'yinlarni tahlil qilish imkoniga ega bo'ladilar. Tahlil savollari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

-Siz o'z o'ynagan rolingizdan nimalarni o'rgandingiz?

-Umuman o'yindan hamda undagi rollardan nimalarni sezdingiz, his qildingiz?

-O'yin hayotiy, haqiqiy bo'ldimi, hayotga o'xshashligi bormi?

Rolli o'yin ssenariysi (Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan)

Yusufbek hoji: O'g'lim, hali san eshitdingmi, yo'qmi haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo'ydiq...

Otabek: Aqllik kishilarning o'g'ullari ustidan qilg'an ishlari albatta noma'qul bo'lmas.

O'zbek oyim: Biz saning uchun Olim ponsadboshining qizig'a unashib qo'ydiq... Endi san bilan to'y maslahatini qilishmoqchi edik...

Yusufbek hoji: Shundog'.

Otabek: Sizlarni ranjitib bo'lsa ham bir martaba uylangan edim-ku? Endi...

Yusufbek hoji: San uylansang biz ranjirmidik? — dedi kulib hoji.

Otabek: Ranjimasalaringiz...

Yusufbek hoji: Bu ranjishdan emas, hojatdan o'g'lim.

Otabek: Nima hojat?

Yusufbek hoji: Hasanalining so'ziga qarag'anda, qayin otang qizini Toshkandga yubormas ekan. O'g'il o'sdirib katta qilg'an onangning bo'lsa oldig'a kelin qo'yg'usi keladir...

Otabek: Bu kungacha kelinsiz ham yashab keldingiz, bundan keyin ham shusiz turib bo'lardi-ku, — dedi.

O'zbek oyim: Man sani bu umid bilan boqib katta qilmag'an edim... San bizning naslimizni ko'tarish o'rniga, yerga urib bulg'ading. Biz sani Marg'ilon andisiga bunchalik mukkadan ketishingni o'ylamag'an edik, adabsiz... o'zingga qolsa shu marg'ilonliqni xoting'a hisoblab ketaberar ekansan-da, uyatsiz!..

Otabek: Xotin bo'lmasa nima, axir?!

O'zbek oyim: Qoshliq, ko'zlik bir andi!

Otabek: Andi deganingiz nima o'zi?

O'zbek oyim: Andi... andi... o'zi xitoyimi, nima balo... o'zi qalmoqdan tarqag'an bo'ladir... Tushunmagan bo'lsang, lo'lilarning bir toyifasi...

Yusufbek hoji: O'g'lim, san onangning gapiga achchig'lanma. Ul har narsa desa faqat Marg'ilondan uylanganingga qarshilig'idan aytadir. Ammo mendan so'rasang, Marg'ilondag'i na qudamiz va na kelinimizni hech bir vajh bilan kamsita olmayman, balki bizga quda bo'lmoqqa eng muvofiq kishilar edi, balli o'g'lim, deyman. Saning tinib-tinchishing, o'sib-unishing uchun quvonmag'an ota-ona sog'qa hisoblanmaydir. San bunga yaxshi ishon. Ammo bizning hozirgi ba'zi bir ra'ylarimiz sanga yotishib kelmas ekan, bunga haqqing ham bor, lekin ikkinchi tarafdan bizni ham haqsiz tashlab qo'yma. O'g'lim, bizning sandan boshqa umid nishonimiz, hayot quvonchimiz yo'q. Dunyoda ko'rib o'taturg'an barcha orzumiz, havasimiz faqat sangagina qarab qolg'an. Biz Xudo taolog'a minglab shukur aytamizkim, san boshqalarning farzandidek eslik-hushlik bo'lding; kishilardek sen bilan iftixor qilolmasaq-da, san orqalik xijolat

chekmasimizga ishonдик. Ayniqsa, onangning saning tufayli kechiraturgan umidlari tobora ortib bordi. Bu kun onang saning oldingg'a tiz cho'kib va onang ko'ngli uchun men ham orag'a tushib sandan so'raymiz: san o'z xohishing yo'lida uylangan ekansan, rafiqang sanga muborak bo'lsin. Eslilik da'vosida yurgan ota-onang tilagi, albatta, shundan boshqa bo'lmas. Shu bilan birga saning sababi vujuding bo'lg'an bir kishi o'z hayoti ichida bolasi orqaliq bir orzu-havas kechirmakchi... Uning bu orzusig'a haq berasanmi, yo'qmi yana ixtiyor o'zingda... Bilgan topib so'zlar, bilmagan qopib, deganlaridek, onangning aytmakchi bo'lg'an so'zi faqat shu edi. Boyag'i gaplari bo'lsa o'z haqqini himoya yo'lida uning po'pisalarigina bo'lib, mendan ham ko'ra onangning fe'lini o'zing yaxshi bilasan...

— Bizni kutdirma, o'g'lim.

Otabek: Men sizlarning orzularingizni bajarishka — agar xursandchilig'ingiz shu bilan bo'lsa — har vaqt hozirman. Ammo bir bechoraga ko'ra-bila turib jabr ham xiyonat...

Yusufbek hoji: Kimga, xotiningg'ami?

Otabek: Yo'q, sizning oladiring'an kelingizga. O'g'lingizning vujudi bilan orzuingizni qondirish oson bo'lsa ham kelingiz qarshisida meni bir jonsiz haykal o'rnida tasavvur qilingiz.

O'zbek oyim: Mayli, bolam, buyoqni hozir san o'ylamay qo'y.

Yusufbek hoji: Juda to'g'ri aytasan, o'g'lim; biroq onangning bir mulohazasizligiga boshdayoq men labimni tishlab qolg'an edim. Hozirda ham shu holda qolmoqqa majburman. Biz hozir andishaning bandasi, men emas onang biravni ishondirib qo'yg'an: bizning oiladan lafzsizlik chiqishi menga ma'qul ko'rinmaydir.

(Otabek ota-ona orzusig'a o'z ta'biricha jonsiz haykal bo'lib rizoliq berdi)

Tahlil savollari:

- Siz o'z o'ynagan rolingizdan nimalarni o'rgandingiz?
- O'z qahramoningiz xarakteriga xos qanday xususiyatlarni sezdingiz, his qildingiz?

- Otabek to‘g‘ri ish tutdi deb o‘ylaysizmi?
- Siz uning o‘rnida bo‘lganingizda qanday yo‘l tutar edingiz?
- O‘zbek oyimning xatti-harakatlarini qanday baholaysiz?
- Yusufbek hojining xatti-harakatlarini qanday baholaysiz?
- Asardan keltirilgan parchadan nima oldingiz? Qanday xulosaga keldingiz?
- O‘yin hayotiy, haqiqiy bo‘ldimi, hayotga o‘xshashligi bormi?

Bulardan tashqari adabiy ta’limda quyidagi didaktik o‘yin texnologiyalaridan foydalanish ham yaxshi samara beradi.

“Akvarium” texnologiyasi

Ta’rifi.

1. 5-6 nafar ishtirokchilar rahbar bilan birga doira shakli bo‘ylab o‘tiradilar. Ular – “baliqlar”. Ularning atrofiga guruhning qolgan ishtirokchilari o‘tiradilar (yoki turadilar) Ular – “baliq ovchilari”.
2. Ichki doira a’zolari (“baliqlar”) o‘qituvchi taklif qilgan savolni faol muhokama qiladilar. “Baliq ovchilari” esa kuzatib turadilar va savolni muhokama qilayotgan biron o‘quvchining fikri ularni qiziqtirib qolganda jarayonga kirishadilar: qo‘shimcha qiladilar, savol beradilar, aniqlashtiradilar. Shunda “baliq ovchisi” fikri uni qiziqtirib qolgan “baliq” ning yoniga turib olishi kerak.
3. Bir muammoning (masalaning) muhokamasi tugaganidan so‘ng ishtirokchilar joylari bilan almashadilar (doiradan tashqarida turganlar endi doira bo‘ylab o‘tiradilar). Barcha ishtirokchilar doirada o‘tirishlari maqsadga muvofiqdir.

4. Foydalanish doiralari.

Ko‘proq gumanitar va tabiiy fanlarni o‘rganish jarayonlarida qo‘llaniladi.

Afzalliklari.

Ishtirokchilarga norasmiy sharoitda fikr almashishga, berilgan muammoni (masalani) hal qilish bo‘yicha o‘z nuqtai nazarlarini bayon etishga imkon yaratadi. Muhokama jarayoniga erkin qo‘shilish va undan chiqib ketishga imkon

beradi. Tahliliy fikrlash, e'tibor jamlash va kuzatuvchanlikni rivojlantiradi. Nutqni va teskari aloqa texnikasini rivojlantiradi.

Qiyinchiliklari.

Muammoni muhokama qilishda barcha o'quvchilar faol ishtirok etishi jarayonida baxs-munozalar, nizolar yuzaga kelishi mumkin. SHu bois o'qituvchi yaxshi tayyorlanishi va kuchli qarama-qarshiliklar paydo bo'lishiga yo'l bermaydigan uslublarni bilishi lozim.

Aniq nazorat bo'lishini talab qiladi. Jarayon davomida ayrim o'quvchilar undan chiqib qolishlari (jarayonda ishtirok etmasliklari) mumkin. Uqituvchi muammoni muhokama qilishga barcha bolalarni jalb qilish usullarini o'ylab chiqishi kerak.

“Tez javob ber” o'yini.

Qollanishi: O'quvchilarda doira shaklida (yoki ikki qator yuzma – yuz turgan xolda) o'tirishadi. U o'yin uchun ko'ptok kerak bo'ladi. Yuzma- yuz o'tirgan o'quvchilardan biri ko'ptokni olib Adabiyotdagi biror mavzu bo'yicha bir savol aytadi ko'ptokni olgan o'quvchi darrov javob qaytarishi kerak javob xato aytilsa yoki ko'p vaqt to'xtab qolsa yutqazgan hisoblanadi.

Afzalligi: O'quvchilarni savol berish va erkin fikrlashga o'rgatadi.

“Tanishuv” o'yini

Qo'llanishi: Mazkur o'yinda o'qituvchi o'quvchilarni ikki guruhga bo'ladi, so'ng ma'lum vaqt ajratilib unda har bir guruh o'quvchisi o'zga guruhdagi o'quvchilar bilan bitta bittadan o'zaro suhbatda bo'ladi va ikkalasi bir biriga o'tilgan mavzulardagi adiblardan biri haqida ma'lumot berishadi qaysi o'quvchi yonidagi o'quvchi aytgan ma'lumotlarni yaxshi eslab qolgan bo'lsa shu o'quvchi g'olib bo'lgan hisoblanadi va rag'batlantiradi. Ushbu o'yinlar o'quvchining aqliy ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilib, adabiyot sohasidagi bilm va ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

III BOB. TA'LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI

3.1. Mavzuni ta'lim jarayonida amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar

Zamonaviy sharoitda o'quvchining o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning (aralash o'qitish) va mahorat darslari ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda. O'yin jarayonida belgilangan vaqt (reglament)ga, muloqot odobiga rioya etish, faollik ko'rsatish hamda o'yinni oxirigacha davom ettirish kutilgan natijani kafolatlaydi. Shuningdek, quyidagi omillar pedagogik maqsadlarda o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi:

- o'yin ssenariysining puxta tayyorlanganligi;
- o'yin maqsadi va vazifalarining to'g'ri, aniq belgilanishi;
- o'yin qoidalarining aniq, lo'nda (8-10 tagacha) ifodalanishi;
- o'yin yo'riqnomasining mavjudligi;
- o'quvchilarning o'yin jarayoniga qiziqishlari;
- rollarning samarali, to'g'ri taqsimlanishi;
- jamoada ko'tarinki kayfiyatning yuzaga kelishi;
- ishtirokchilarning bir-birlarini tushuna olishlari va qo'llab-quvvatlashlari;
- har ishtirokchining o'yin natijasi uchun mas'uliyatni his etishi;
- barcha ishtirokchilar imkoniyatlarining yagona maqsadga yo'naltirilishi

O'yin jarayonida hech kim halaqit qilmasligi kerak. Bordi-yu, zaruriyat bo'lsagina faqat boshlovchi ishtirokchilarning harakatlarini tuzatishi, ularni to'g'ri yo'naltirishi mumkin.

Har qanday jarayon singari o‘yin yakunida uning tashkil etilishi, o‘tkazilishi yuzasidan muhokama o‘tkazilishi zarur. Muhokama chog‘ida o‘yin ishtirokchilari, tomoshabin (jamoaning o‘yinda ishtirok etmagan a‘zolari), ekspertlar o‘yinning tashkil etilishi va o‘tkazilishi yuzasidan o‘z fikr-mulohazalari, takliflarini bildiradi.

Muhokama jarayoni quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- taqrizchilarning chiqishlari;
- fikrlar almashinuvi;
- ishtirokchilarning o‘z qarorlari va xulosalarini himoya qilishlari;
- o‘yinga yakun yasash

O‘yin texnologiyalarining metodik ta‘minoti loyiha, o‘yinning mezonlari, ish qog‘ozlari (metodik ko‘rsatmalar), o‘yin mohiyatini yorituvchi hujjatlar (ssenariy) kabilardan iborat. Pedagogik jarayonda qo‘llaniladigan o‘yinlar subyekt faoliyatini taqozo etadigan hamda mashina (kompyuter) o‘yinlari tarzda farqlanadi. O‘yinlar chog‘ida turli vositalar (kompyuter, imitatsion trenajyorlar, sport anjomlari (koptok, arqon, halqa), xomashyolar (plastilin, yumshoq o‘yinchoqlarni yasash uchun materiallar, rangli qalamlar, ish qog‘ozlari, o‘yinchoqlar, legolar, konstruksiyalar, dekoratsiyalar va boshqalar kerak bo‘ladi.

3.2. Dars ishlanmasi

GʻAFUR GʻULOMNING “SHUM BOLA” QISSASI TAHLILI

(VI sinf ,I chorak)

Darsning maqsadi:

- a) **Taʼlimiy maqsad:**Gʻafur Gʻulomning “Shum bola” qissasidan berilgan parchani toʻliq oʻqish, asar qahramonlari xatti-harakatlariga baho berish, Shum bola xarakterini anglash ;
- b) **Tarbiyaviy maqsad:** Oʻquvchilar qalbiga kamtarlik, xolislik kabi fazilatlarni singdirish, Shum bola obrazi misolida oʻz xatosini anglash va undan xulosa chiqarish orqali oʻz-oʻzini tarbiyalashga erishish;
- c) **Rivojlantiruvchi maqsad:** oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqini oʻstirish, milliy qadriyatlarni ulugʻlash sifatlarini rivojlantirish.

Shakllantiriladigan kompetensiyalar:

Kommunikativ kompetensiya: Qissa va uning bosh mavzusi haqida tasavvurga ega boʻlish, uni ogʻzaki ifodalash, badiiy asardagi kulgi haqidagi tushuncha hosil qilish; dars davomida adabiy tilda soʻzlashishga erishish;

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi: mavzuga doir turli adabiyotlardan (kitob, gazeta, jurnal, telefon, radio, televizor, kompyuter, internet)foydalana olish;

Shaxs sifatida oʻz-oʻzini rivojlantirish kompetensiyasi: dars davomida oʻz-oʻzini boshqarish, doʻstini hurmat qilish, oʻzgalar fikrini tinglash, topshiriqlarni oʻzgalar fikrini tinglash, topshiriqlarni oʻz vaqtida bajarish;

Umumbashariy kompetensiya: Ijodiy qobiliyatini namoyon etish, odob - axloq qoidalariga rioya qilish.

Dars turi: musobaqa, guruhlarda ishlash.

Dars jihozlari: darslik, Gʻafur Gʻulom portreti va asarlari, ragʻbat kartochkalari, kompyuter, proyektor.

Darsda foydalaniladigan usullar: “Savollar sandiqchasi”, “Bumerang”, “Kim epchil-u kim chaqqon?”, “Keling tekshiramiz”, “Uchinchisi ortiqcha”, “Raqamlar bilan tillashamiz, asar yuzasidan bellashamiz”, test.

Dars shakli :induktiv

Dars shiori: Go‘zal va betakrorimsan ,muqaddas Vatanim jonim senga fido,
O‘zbekistonim!

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism :

- 1) salomlashish;
- 2) navbatchi hisoboti;
- 3) o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini aniqlash;
- 4) taxtaga sanani yozish.

Dars o‘qituvchining sinf o‘quvchilarini ko‘tarinki kayfiyatda darsga chorlashi bilan boshlanadi:

“Savollar sandiqchasi” - (O‘qituvchi sandiqqa savollar yozilgan qog‘ozlarni solib qo‘yadi, doskaga chiqqan o‘quvchi sandiqichadan savollarni oladi va og‘zaki javob beradi.)

II. O‘tilgan mavzuni takrorlash.

Sinf o‘quvchilari 3 guruhga bo‘linadi. Dars mustaqillik

Darslari negizida tashkil etilayotgani uchun jamoalar quyidagicha nomlanishi mumkin:

I guruh – “Omad”,

II guruh – “Do‘stlik”,

III guruh – “Ezgulik”.

Dastlab sardorlardan o‘z guruhi nomini izohlash so‘raladi.

“Omad” guruhi:

Biz – dunyodagi eng omadli bolalarmiz Chunki biz mustaqil O‘zbekiston dilbandlarimiz. Dunyodagi barcha bolalarning biz kabi omadli va baxtli bo‘lishlarini istaymiz.

“Do‘stlik” guruhi: Biz barchamiz qalbimizda do‘stlik, birdamlik, hamkorlik tuyg‘ulari mustahkam ildiz otib ulg‘aymoqdamiz. Zero, yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillaribiri oila bo‘lib tinch-totuvlikda hayot kechirmoqda. Biz do‘stlik tarafdorimiz.

“Ezgulik” guruhi: Biz mustaqillik davrida dunyoga kelganmiz. Demak, yurtimizda amalga oshirilayotgan behisob ezguliklardan bahra olib, sog‘lom va ma’naviyatli bo‘lib kamol topmoqdamiz. Biz ezgulik tarafdorimiz.

O‘tilgan mavzuni takrorlash maqsadida. “Shum bola” asari asosida suratga olingan badiiy film yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi:

1. Qaysi yozuvchilarning asarlari asosida filmlar suratga olingan?
2. Mashhur “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Shaytanat”, “Yodgor”, “Sehrli qalpoqcha”, “Shum bola” kabi kinolar qaysi adiblarning asarlari asosida suratga olingan?
3. G‘afur G‘ulomning yana qaysi qissasi asosida badiiy film suratga olingan?
4. “Shum bola” qissasi asosida suratga olingan filmda shum bola rolini mahorat bilan ijro etgan aktyor kim?

Sinf o‘quvchilari bilan umumiy tarzda savol-javob qilib olingach, G‘afur G‘ulom hayoti va ijodi asosida tayyorlangan savollar monitor orqali o‘quvchilar e‘tiboriga havola etiladi. Savollar jadval ko‘rinishida tuzilgan bo‘lib, uning qog‘oz nusxasi tarqatma material sifatida har bir guruhga bir nechtdan beriladi. Guruh a‘zolari shu savollarga javob topadilar.

Suitable answer

Asarlari	She‘rlari	Hikoyalari	Qissalari
“Sen yetim emassan”	✓		
Mening o‘g‘rigina bolam		✓	
“Kuzatish”	✓		
“Yodgor”			✓
“Vaqt”	✓		
“Shum bola”			✓

“Netay”			✓
---------	--	--	---

O‘quvchilar savollarga javob topgunlariga qadar o‘qituvchi uyga vazifalar qay tarzda bajarilganligini nazorat qiladi. Guruhlarning savollarga bergan javoblari tinglangach, monitor orqali to‘g‘ri javoblar namoyish etiladi. Eng faol guruh rag‘bat kartochkasini qo‘lga kiritadi.


III. Yangi mavzu bayoni.

“Shum bola” qissasiga ajratilgan so‘nggi soat ekanligini hamda keyingi soatda “Shum bola” qissasi asosida “Qoravoyning o‘ziga xos xislatlari” mavzusida insho yozilishini hisobga olib, darsning bu qismida **“Bumerang”** (texnologiyasidan foydalanib guruhlar e‘tiboriga har bir guruh uchun alohida topshiriq berilgan jadval ko‘rinishidagi savolnoma taqdim etiladi. Bunda guruhlar nafaqat o‘z guruhiga, balki boshqa guruhlariga berilgan savollarga ham javob berish, mavzuni yanada chuqurroq yoritish imkonini qo‘lga kiritadi.

Kim epchil-u kim chaqqon? 		
I guruh	II guruh	III guruh
«Shum bola» qissasidagi Qoravoy ishlatgan yolg‘onlarni tartib bilan joylashtiring	«Shum bola» qissasida Sariboyning shum bolaning yolg‘onlarini eshitayotgan paytdagi ahvolini yoriting	Asardagi shum bola tilidan aytilgan maqollarni sharhlang
 5 daqiqa	 5 daqiqa	 5 daqiqa

Uchinchisi ortiqcha

“Shum bola” qissasida qaysi kasb tilga olinmagan



Guruhlarning javoblari muhokama qilinadi. So'ng ekran orqali har bir guruh savollari va uning javobi aks etgan slayd namoyish etiladi. To'g'ri javob bergan guruh rag'bat kartochkasini qo'lga kiritadi.



Keling, tekshiramiz!



I guruh

II guruh

III guruh

«Shum bola»
qissasidagi Qoravoy
ishlatgan yolgʻonlar

«Shum bola» qissasida
Sariboyning shum
bolaning yolgʻonlarini
eshitayotgandagi ahvoli

Asardagi shum bola
tilidan aytilgan
maqollarni sharhlang


1. Dandon sopli pichoqning sinishi.
2. Tozi itning oʻlimi.
3. Otning oʻlimi.
4. Ogʻilxonaga, qoʻrgʻonga, omborga oʻt ketishi.
5. Boʻriboyvachchanning oʻlimi.
6. Adol opaning farzand koʻrishi.
7. Tugʻilgan chaqaloq xuddi Badal aravakashga quyib qoʻyganday oʻxshashi.

1. Alanglab qoladi (toʻriq qashqaning oʻlganini eshitib)
2. Talmovsirab qoladi (arvoh haqidagagi yolgʻonni eshitib)
3. Qoʻrqa-pisa soʻraydi (oʻlim haqidagi xabarni eshitib)
4. Piyolani chakkasiga urib boshini yoradi (Boʻriboyvachchanning oʻlimi haqidagi xabarni eshitib)
5. Hushidan ketadi (qizining farzand koʻrganligi haqidagi xabarni eshitib)
6. Chaynab turgan ovqatini yeyishga ham darmoni qolmaydi (yongʻin haqidagi xabarni eshitib)

1. «Mol sotganda aybini aytib sotmoq».
2. «Xudo urgan ziqna boʻlmang».
3. «Onasini Uchqoʻrgʻonda koʻrmoq».
4. «Berdisini aytgan cha shoshilmaslik».
5. «Oʻpkasini uzib yubormang».
6. «Dunyoga arzimoq».

IV. Mustahkamlash.

Darsning ushbu bosqichida har bir guruh uchun asar yuzasidan alohida savol taqdim etiladi va bu o'quvchilarning asarni puxta o'zlashtirishlariga imkon yaratadi, qiziqishlarini orttiradi.





«Ezgulik» guruhiga:



1 oy-u 19 kun	
22 tiyn	
20 qamchi	
6 tanga-yu 1 miri	
2 pud 17 qadoq	
73 ta qo'y	
2 ta to'qli bir echki	
100 lab tanob olmazor	Sariboyning shuncha miqdorda olmazor bog'l bor

Raqamlar bilan tillashamiz, asar yuzasidan bellashamiz.



Navbatdagi bosqichda guruh sardorlarining bilimlari sinovdan o'tkaziladi. Buning uchun ularga quyidagicha test savollari beriladi:

1. "Shum bola" qissasida keltirilgan bozor nomini belgilang.

A) Sariog'och B) Ko'kterak C) Chimkent **D) A, B javoblar to'g'ri**

2. Qaysi asar qahramoni o‘zini “Oshtomog‘i” atamasi bilan atagan?
A) “Nizomning tantiligi” parchasida Nizom B) **“Shum bola” qissasida Qoravoy**
C) “Muzqaymoq” hikoyasida bola D) “Qoplon” hikoyasida Qurbonboy
3. Qoravoy boyning uyida qancha muddat xizmat qiladi?
A) **1 oy-u 19 kun** B) 2 oy-u 19 kun C) 1 oy-u 15 kun D) 2 oy-u 15 kun
4. “Shum bola” asarida boy Qoravoyning xizmat haqini qanday to‘ladi?
A) 22 tiyinberdi B) 20 tiyinberdi C) **ikki pud olma berdi** D) bir qopolma berdi
5. “Shum bola” qissasidagi yuzlab qalandarga yo‘lboshchi bo‘lib, har gapida qayta-qayta xudoni tilga olsa-da, aslida yosh bolani qing‘ir yo‘lga boshlagan ikki yuzlamachi obraz?
A) Sariboy B) Hojibobo C) **Eshon** D) Yusuf kontor
6. “Shum bola” asaridagi Sariboyning “innankeyin” deb beriladigan savoliga javoban Qoravoy ishlatgan yolg‘onlarni tartib bilan belgilang.
1. Dandon sopli pichoqning sinishi
 2. Tozi itning o‘limi
 3. Og‘ilxonaga, qo‘rg‘onga, omborga o‘tketishi

XULOSA

Ta'lim tizimida didaktik o'yinlar o'zni juda katta. Chunki pedagog uchun professional mahorat bu uning faol faoliyatini osonlashtiradigan didaktik o'yinlarni yaratish va o'quvchilarni fanga qiziqtirish, bilim darajasini oshirishi bilan ham ahamiyatlidir. Kichik tadqiqotlarimizdan shuni aniqladikki, adabiyot darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish orqali ta'lim jarayonini ikki baravar unumli tashkil qilish va o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish mumkin. Jahon tajribalaridan ham anglashiladiki, o'rinli foydalanilgan didaktik o'yinlar orqali o'quvchi berilayotgan materiallarni chuqirroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyatiga, ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqining yanada ortishiga, olingan bilimlarning xotirasida uzoq muddat saqlanishi va amaliyotda qo'llashga yordam beradi.

Shu bilan birga o'quvchilar faqat adabiyotga oid bilimlarni o'zlashtiribgina qolmasdan, balki erkin fikrlilik, faollik, topqirlik qobiliyatlarini ham oshiradi.

Ikkinchi tomondan esa, pedagoglarning ishini osonlashtirishga va o'z ustida ko'proq ishlashga yo'l ochib beradi.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasida o'yin orqali darslarni to'g'ri tashkil etish dolzarb muammolardan biridir. Didaktik o'yin ta'lim jarayonini faollashtiruvchi pedagogik usullar orasida alohida o'rin egallaydigan ta'limiy-o'yin bo'lib, u o'zida maqsadga yo'naltirilgan mutaxassislikning kasbiy faoliyatini qamrab oladigan o'zaro bog'liqlikni mujassamlashtiradi.

Didaktik o'yinlardan dars jarayonida foydalanish quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi:

- birinchidan, o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- ikkinchidan, o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- uchinchidan, shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;

- to'rtinchidan, hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;

- beshinchidan, o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;

- oltinchidan, shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;

- yettinchidan, insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;

- sakkizinchidan, o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

O'yin faoliyati tomonidan yondashganda didaktik ta'limiy o'yin – bu ta'lim oluvchilarning ijtimoiy va predmetli faoliyatni o'yin jarayonida, o'yin qoidalariga singdirilgan kasbiy faoliyatning shartli vaziyatlari orqali muammolarning yechimini topishda amalga oshiriladigan bilish va o'zlashtirishdir.

Adabiyot ta'limining barcha bosqichlarida didaktik o'yin turlaridan unumli foydalanib dars o'tish mobaynida o'quvchilarning adabiyot fanidan puxta va keng bilim va ko'nikmalar olishlarida muhim ta'limiy - tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: 2017-yil.
2. Mirziyoyev Sh. “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori. T.: 2017-yil.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 171 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2009. – 41 b.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni// “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobida. – T.: Sharq, 1997. – B. 20-29.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”// “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobida. – T.: Sharq, 1997. – B.31-61.
7. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi Ona tili, Adabiyot (5-9-sinf), O‘zbek tili (2-9-sinf). Toshkent, 2017-yil.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

8. Azizxo‘jayeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000. – 52 b.
9. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – T.: TDIU, 2010. – 149 b.
10. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari (Xalq ta’limi xodimlari uchun qo‘ll.). – T.: O‘qituvchi, 2004. – 101 b.
11. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005. – 205 b.

12. Xodiyev B., Golish L. Mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari. – T.: TDIU, 2010. – T.: TDIU, 2010. – 87 s.
13. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 232
14. Q.Yuldoshev. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1996.
15. A.Zununov. N. Hotamov. J. Esonov. Maktabda adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent, “O‘qituvchi” 1993.
16. Q.Yo‘ldoshev, O.Madaev, A. Abdurrazoqov. Adabiyot o‘qitish metodikasi, dasturiy qo‘llanma. Toshkent, 1994.
17. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Toshkent, 2007.
18. M. Mirqosimova. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida epik asarlarni o‘rganish “Til va adabiyot ta’limi”, 2003, 2-son, 28-33-betlar.
19. A.Zunnunov. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1992.
20. Boltaboyev H. Adabiyot ensiklopediyasi. 1-jild. T., 2015.
21. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. T.: Kamalak, 2016.

III. Internet manbalari:

1. www.edu.uz
2. **Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки.** adabiyoti.com
3. www.ziyouz.uz
4. www.tdpu.uz

ILOVA

Ibroyim Yusupov ijodini o'rgatish

Dars ishlanma

Vaqt: IV chorak

Sinf: 6

Mavzu: Ibroyim Yusupovning “Qadirdon so‘qmoqlar” asarini o‘rgatish

Darsning maqsadi:

Ta’limiy maqsad: O‘quvchilarga Ibroyim Yusupovning “Qadirdon so‘qmoqlar asarida ifodalangan insoniy tuyg‘ularni his eta olishga o‘rgatish;

Tarbiyaviy maqsad: O‘quvchilarga mehr oqibat, o‘z vatanidan faxrlanish, vaqtdan unimli foydalanish, yuksak maqsadlar sari intilish tuyg‘ularini singdirish;

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish, o‘z fikrini erkin ifodalash, nazariy xulosalar chiqarish ko‘nikmasini rivojlantirish;

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

Mavjud axborotni multimedia vositalardan foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish, ibrat olish va o‘z faoliyatida qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirish;

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

Darslikda berilgan asar orqali insonparvarlik g‘oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o‘ziga xosliklarni anglash, ulardan ta‘sirlanish, ulardagi go‘zallik va ezgulikdan o‘rnak olishga intilish, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana olishga o‘rgatish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Darsning jihozi: 6-sinf “Adabiyot” darsligi, Ibroyim Yusupov rasmi, proektor, notebook, tarqatma materiallar.

Darsda foydalaniladigan usullar: “Harakatli ma‘lumot”, “So‘z izohi”, “Ikki qisimli kundalik”, “Qunt bilan tingla”, “Overhoul” metodlari

Dars rejasi:

№	Dars rejasi	Vahti
1.	Tashkiliy qism. Salomlashish. Davomatni aniqlash. Tozalikni tekshirish.	2 daqiqa
2.	Uyga vazifani so‘rash.	10 daqiqa
3.	Yangi mavzu bayoni.	20 daqiqa
4.	Yangi mavzuni mustahkamlash.	10 daqiqa
5.	Baholash.	2 daqiqa
6.	Uyga vazifa berish.	1 daqiqa

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism: a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) tozalikni tekshirish;

II. O‘tgan mavzuni so‘rash.

Guruhlarning Ibroyim Yusupov hayoti bo‘yicha tayyorlab kelgan krasvord va darslikdan tashqari topib kelgan ma’lumotlarini ko‘rib chiqilib baholanadi.

Bunda “Harakatli ma’lumot” metodi

(Bunda dars o‘yin tarzida tashkil qilinadi. Sinf o‘quvchilari uch guruhga bo‘linadi)

Uch guruh sardorlari taxtaga chiqadi. Har guruhdan uch o‘quvchi bir harakat bilan bir ma’lumot aytadi va uch guruh ham ma’lumotlarni aytib bo‘lgach sardorlar

o‘z guruhining aytgan ma’lumotlarini harakati bilan birga takrorlab berishlari kerak)

Yangi mavzu bayoni:

Dars qoraqalpoq madhiyasi bilan boshlanadi.

O‘qituvchi: “O‘quvchilar bu qo‘shiqni, uning muallifini hammamiz bilamiz shundaymi? Bu, albatta, hammamizga belgili mashhur bo‘lgan Qoraqalpog‘iston va O‘zbekistonning sevimli adibi Ibroyim Yusupov qalamiga mansubdir. Bilasizlarmi, vatan madhi qaysi tilda qanda aytilmasin u hammaga birday tushunarli, ta’sirli va yoqimli tuyiladi. Yuraklarda faxr va iftixor tuyg‘ularini shakillantirib o‘ziga ohangrabodek tortadi. Chunki vatan barcha uchun aziz va qadirlidir.

So‘ng monitorida QADRDON, MISR, SO‘QMOQ so‘zlari ko‘rsatiladi. Guruhlar bu so‘zlarga “So‘z izohi” usulidan foydalnib izoh beradilar. O‘quvchilar faol ishtiroki va fikrlariga qarab baholanib boraveradi.

1-guruh “QADRDON” so‘ziga izoh beradi:

1-o‘quvchi: Qadrton so‘zi aziz, yaqin so‘zlariga ma’nodosh.

2-o‘quvchi: O‘zaro qadr-e‘tiborli, bir-birini juda qadrlaydigan kishilar ham bir-biriga qadirdon bo‘ladi.

3-o‘quvchi: Jonajon maktabim va kitoblarim, oila a‘zolarim va do‘stlarim ham men uchun qadrdon.

II guruh “MISR” so‘ziga izoh beradi:

1-o‘quvchi: Misr tarixiy shahar.

2-o‘quvchi: Misr davlati Afrika qit‘asidagi iqtisodiyoti rivojlangan mamlakat.

3-o‘quvchi: Misrda piramidalar bor.

III guruh “SO‘QMOQ” so‘ziga izoh beradi:

1-o‘quvchi Odamlar qatnovi natijasida yuzaga kelgan yolg‘izoyoq yo‘l.

2-o‘quvchi: Ba‘zan kishi faoliyatida, hayotda bosib o‘tgan yoki bosib o‘tiladigan yo‘li ham so‘qmoqqa o‘xshatiladi.

3-o'quvchi: So'qmoq yo'llar tog'larda, sahrolarda bo'ladi.

She'ning birinchi bandi o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib, mazmuni tushintiriladi. She'rga epigraf qilib olingan "Har kimning tug'ulgan yeri – Misr shahri" jumlasini izohlab beriladi: dunyoning eng qadimiy va eng go'zal shaharlari joylashgan. Odamlar bu shaharni bir bora ko'rish, ularga sayohat qilishni orzu qilishadi. Demak, shoir tug'ilgan yurtini, ovulini muazzam shaharlardan kam ko'rmaydi, she'rini ham xalqning ibratli maqoli bilan boshlaydi.

QADRDON SO'QMOQLAR

"Har kimning tug'ulgan yeri – Misr shahri" (Maqol)

Qizl kendir bilan shivirlashar tol,

Turna uchib borar uzoq yoqlarga.

Talay yo'llar bosib misoli shamol

Yana qaytib keldim bu so'qmoqlarga.

She'rda shoir o'ziga xos tarzda o'xshatishlardan foydalangan, ya'ni qizil kendir bilan yonma-yon o'sgan tolning shabadada shitirlashi go'ya shivirlashib suhbatlashib turganga o'xshatiladi. Qizl kendirni xalq tilida qizilquray deyishadi. U ko'p yillik tolali o'simlik bo'lib, poyasining po'stlog'idan olingan toladan arqon eshish mumkin. Qishloq tabiatini yanada ko'kalamlashtirgan turnalarning olislarga uchishi ham shoir e'tiboridan chetda qolmagan. Bularning barchasi yig'ilib, shoirning tug'ilib o'sgan tuproqqa, Vatanga bo'lgan mehri, sog'inchini ifodalaydi. Umr misoli shamol, yeldek uchib olg'a bosadi. Vatandan qanchalik olisga ketsak-da, lekin uning mehri, tafti bizlarni o'ziga doim chorlab turadi.

Shundan so'ng "Ikki qisimli kundalik" metodidan foydalanamiz bunda har bir guruhga she'ning davomi va "Qadrdon so'qmoqlar" dan so'ng keltirilgan to'rtliklar ikki banddan bo'lib qo'yilgan maxsus varaqchalar tarqatiladi va berilgan parchalar haqida o'z fikrlarini yozishlari zarur ekanligi aytiladi.

<p>Ushbu tor so‘qmoqqa qadam qo‘yganda Qaytadan men bola bo‘lib ketaman. Intqqan yuragim kengayib shunda Chamanda qush bo‘lib parvoz etaman.</p>	<p>Taqdir taqozosi bilan uzoqlarga o‘qish, ishlash uchun ketgan odamlar qachondir tug‘ilgan joyiga, bolaligi o‘tgan maskanga qaytganda o‘zlarining go‘zal bolaliklariga qaytganday bo‘lishadi. Ortda qolgan baxtli kunlarini qumsaydi. Ushbu asarda shoir ham xuddi shu tuyg‘larni aks ettirgan va o‘zini chamanda parvoz etadigan qushga qiyoslagan.</p>
<p>Mosh paykalda gala chumchuq chug‘urlar, She’r o‘qishib turgan yosh shoirlarday. Burihda tanish qo‘shig‘in kuylab, Qo‘shni qiz oldimdan chiqib qolarday.</p>	
<p>Biroq u bunda yo‘q, u yiroqlarda... Bizning joylar o‘rni hozir paxtazor. Nechog‘lik monandsiz bizning yoqlarda, Deb doim maqtayman, so‘rashsa agar.</p>	
<p>Gul terib, kapalak quvgan sho‘x vaqtim, Anov bedazorda yurgan toy desam. Yo tavba, shu bitta qiyshiq so‘qmoqning Dilga yaqinligin qanday aytarsan!</p>	

<p>Cholga salom bersam o‘sha so‘qmoqda, “Kimsan?” deb tanimay menga qaradi. Bir bola uchrasa sal nariroqda: –Kimning o‘g‘lisan? – deb men ham so‘radim</p>	
<p>– Ota, Narvon bo‘pdi anov qo‘sh terak! – Bolam, terak emas, bu umr-ku, bu! – Inim, bog‘ga nega bog‘lading eshak? – E, anov chiriy deb qolgan olma-ku!</p>	

So‘ng **“Qunt bilan tingla”** metodi Ibroyim yusupovning “Qadrdon so‘qmoqlar” she‘ri audiosi eshittirilib guruhlariga yopiq testlar tarqatiladi va javoblar yig‘ib olinadi.

Test savollari:

- 1.Tol nima bilan shivirlashadi;
- 2.Olis yoqlarga uchayotgan qanday qush;
- 3.Mosh paykalda qanday qushlar chug‘urlaydi;
- 4.Bizning joylar o‘rni hozir
- 5.So‘qmoqda u kimga salom beradi?
- 6.Bog‘ga qaysi hayvon bog‘langan edi

Javoblar:

- 1.Qizil kedr;
- 2.Turna;
- 3.Chumchuqlar;
- 4.Paxtazor;
- 5.Cholga.
- 6.Eshak

IV Yangi mavzuni mustahkamlash.

Dars oxirida “Overhaul” usulidan foydalanib guruhlariga varaqchalarda “Qadrdon so‘qmoqlar” she‘ri bandlarining chalkashtirib tuzilgan variantlari tarqatiladi va o‘quvchilar she‘rning almashib qolgan misralarini joy – joyiga

qaytarishlari zarur bo‘ladi va varaqchalar almashtirilib tekshiriladi va keyingi darsda ham shu metoddan takrorlash sifatida foydalanilishini shuning uchun keyingi darsga yaxshilab tayyorlanishlari zarur ekanligi ta’kidlanadi.

She’rdan parcha	№
Chamanda qush bo‘lib parvoz etaman	4
Ushbu tor so‘qmoqqa qadam qo‘yganda	1
Intiqqan yuragim kengayib shunda	3
Qaytadan men bola bo‘lib ketaman	2

V. Baholash va rag‘batlantirish.

Dars oxirida guruhlarning ballari e‘lon qilinadi.

O‘quvchilar baholanadi, faol qatnashganlar va g‘olib guruhlar alohida qarsaklar bilan rag‘batlantiriladi.

Rag‘bat kartochkalari oldindan to‘rt burchak shaklida berilgan va o‘quvchilar undan Narvon yasagan bo‘lishlari kerak edi. Qaysi guruhning narvoni eng baland bo‘lsa o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi va doimo bizni yuksaklarga olib chiquvchi yagona Narvon bu bilimlarimiz ekanligi, kim bilimli bo‘lsa, u baland marralarni zabt etishi mumkin ekanligi takidlanadi.

VI. Uyga vazifa:

1. I.Yusupovning “Qadrdon so‘qmoqlar” she’rini yod olish.
2. “Ibroyim Yusupov ijodiga fikrlarim” mavzusida kichik matn yozib kelish.